

RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI UCHUN TAHDID VA IMKONIYATLAR

Ruziyeva Shaxlo Raupovna

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Buxoro Zarmed universiteti Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

shakhlo_ruzieva_raupovna@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0005-4448-155X>

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlashdagi asosiy tahdidlar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Maqolada moliyaviy qiyinchiliklar, "miya oqishi" (brain drain), globallashuv va texnologik o'zgarishlar kabi tahdidlar yoritilgan. Shuningdek, texnologik innovatsiyalarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga e'tibor qaratish va maxsus dasturlarni ishlab chiqish kabi imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Maqola oliy ta'lim muassasalari oldida turgan raqobatbardoshlikni oshirish masalalarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, raqobatbardoshlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik, ilmiy-tadqiqotlar, texnologik rivojlanish, "miya oqishi", globallashuv.

Аннотация

В данной статье будут проанализированы основные угрозы и возможности для обеспечения конкурентоспособности высших учебных заведений. В статье рассматриваются такие угрозы, как финансовые трудности, "утечка мозгов", глобализация и технологические изменения. Также будут рассмотрены такие возможности, как внедрение технологических инноваций, укрепление международного сотрудничества, сосредоточение внимания на научно-исследовательская работа и разработке специальных программ. Статья направлена на комплексный анализ вопросов повышения конкурентоспособности, стоящих перед высшими учебными заведениями.

Ключевые слова: высшее образование, конкурентоспособность, финансовая стабильность, инновации, международное сотрудничество, научная исследования, технологическое развитие, "утечка мозгов", глобализация.

Annotation

This article will analyze the main threats and opportunities for ensuring the competitiveness of higher education institutions. The article examines threats such as financial difficulties, "brain drain" (brain drain), globalization, and technological change. Opportunities such as the introduction of technological innovations, strengthening international cooperation, and focusing on research and development of special programs will also be considered. The article is aimed at a comprehensive

analysis of the issues of increasing competitiveness facing higher education institutions.

Keywords: higher education, competitiveness, financial stability, innovation, international cooperation, scientific research, technological development, brain drain, globalization.

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv, texnologik rivojlanish va xalqaro raqobatning kuchayishi oliy ta'lim muassasalariga yangi talablar qo'yimoqda. Oliy ta'lim tizimi mamlakat iqtisodiyoti va jamiyat rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lib, raqobatbardosh bo'lish nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham oliy o'quv yurtlarining o'z pozitsiyalarini saqlab qolishi va rivojlanishi uchun zarurdir.

Raqobatbardoshlikni oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash oliy ta'lim muassasalarining asosiy maqsadlaridan biriga aylangan.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda mavjud tahdidlar hamda ularga qarshi turishning strategik yo'nalishlari alohida ahamiyatga ega. Xalqaro ta'lim bozorining rivojlanishi, yangi texnologiyalar, global iqtisodiy o'zgarishlar, demografik tendensiyalar va madaniy farqlar kabi omillar oliy ta'limning kelajagini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari uchun bu omillar yangi imkoniyatlar ham yaratadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri raqobatbardoshlikni ta'minlashdir. Globallashuv, texnologik rivojlanish va xalqaro integratsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari o'z pozitsiyalarini saqlab qolish hamda rivojlanishlari uchun raqobatbardosh bo'lishlari zarur. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalar uchun mavjud bo'lgan asosiy tahdidlar va imkoniyatlar chuqur tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'limning zamonaviy holati, global tendensiyalar, iqtisodiy o'zgarishlar, texnologiyalar va boshqa omillarni hisobga olgan holda, quyida keltirilgan adabiyotlar tahlili oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlash, ular bilan bog'liq tahdidlar va imkoniyatlar haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

1. Raqobatbardoshlik va oliy ta'limning ahamiyati. Giorgia Miotto maqolasi oliy ta'limning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan va raqobatbardoshlikni qanday ta'minlash lozimligi haqida muhokama qilingan[1]. Simon Marginson o'z maqolasida, global ta'lim bozorida oliy ta'lim muassasalarining o'rni va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ko'rib chiqqan[2].

2. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun texnologiyalar va innovatsiyalar. Christensen, C., Horn, M., & Johnson, C kitobida ta'lim texnologiyalarining oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini qanday oshirishi mumkinligini tushuntiradi. Innovatsiyalar va raqamli o'qitish tizimlari orqali yangi imkoniyatlar yaratish haqida batafsil ma'lumot berilgan[3]. Gartner Research o'z tadqiqotida oliy ta'limda


texnologiyaning roli va raqobatbardoshlikni oshirishda uning imkoniyatlari tahlil qilingan[4].

3. Iqtisodiy omillar va tahdidlar. Altbach, P.G., & Knight, J. o‘z maqolasida global miqyosda oliy ta’limning xalqaro integratsiyasi va uning iqtisodiy ta’sirlari tahlil qilingan. Oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobat va bu jarayonning iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganilgan[5]. Salmi, J., & Tapper, T. o‘z maqolasida oliy ta’limning raqobatlashuvi va talaba sifatida qaralishi hamda bu jarayonlarning oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligi uchun tahdidlari haqida so‘z yuritilgan[6]. N. Sharopova maqolasida samarali raqamli marketing strategiyalari va kampaniyalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi deb ta’kidlangan[7].

Xalqaro ta’limni kengaytirish uchun bir qator asoslarni taqdim etuvchi xalqaro ta’limning asosiy komponenti sifatida talabalarning harakatchanligi bilan munosabatlarni mantiqiy va axloqiy jihatdan muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklar mavjudligi[8]. O‘zgarishlar oliy ta’lim darajalarini o‘zaro tan olishda namoyon bo‘ladigan integratsiya bosimini keltirib chiqaradi[9]. Oliy ta’limda barqarorlikka oid tasavvur o‘zgarishlarga tahdid, sinov yoki xavf omili sifatida emas, balki barqarorlikning “yoqilg‘isi” sifatida qaraladi[10].

METODOLOGIYA

Oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligi ularning nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham talabalar, professor-o‘qituvchilar va investitsiyalarni jalb etish qobiliyatiga bog‘liqdir. Bu jarayon universitetlarning reytingi, ta’lim sifati, ilmiy tadqiqotlar, va xalqaro hamkorlik kabi ko‘plab omillarga tayanadi. Raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi omillar **1-rasm**da keltirilgan.



1-rasm. Raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi omillar¹

Ilmiy tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasalari uchun bir qator tahdidlar borligi asoslab berildi.

1. Moliyaviy qiyinchiliklar. Oliy ta’lim muassasalarining asosiy tahdidlaridan biri moliyaviy barqarorlikning yetishmasligidir. Moliyaviy resurslarning

¹ Muallif ishlanmasi

cheklanganligi ta'lim sifati va tadqiqotlar rivojiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa ularning raqobatbardoshligini kamaytiradi.

2. "Miya oqishi" (Brain Drain). Eng iste'dodli talabalar va professor-o'qituvchilar rivojlangan davlatlarga ko'chib o'tishi, mahalliy oliy ta'lim muassasalarining intellektual potensialini susaytiradi. Bu jarayon, ayniqsa, kam rivojlangan mamlakatlarda dolzarbdir.

3. Globallashuvning kuchayishi. Xalqaro darajada reyting va tanlov kuchaygan bir paytda, oliy ta'lim muassasalari kuchli global raqobatga duch keladi. Yirik universitetlar tomonidan amalga oshirilayotgan sifatli ta'lim va ilmiy tadqiqotlar mahalliy oliy ta'lim muassasalar uchun jiddiy tahdid hisoblanadi.

4. Texnologik o'zgarishlar. Onlayn ta'lim platformalarining jadal rivojlanishi an'anaviy oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligiga jiddiy tahdid tug'diradi. Agar oliy ta'lim muassasalari zamonaviy texnologiyalarni o'z faoliyatiga samarali joriy etmasa, ular ortda qolish xavfiga duch keladi.

Tadqiqot jarayonida yuqorida keltirilgan tahdidlarni oldini olish uchun oliy ta'lim muassasalari uchun imkoniyatlarni alohida o'rganish bo'yicha yechimlar ishlab chiqildi. Ushbu jarayonda kuzatishlar olib borildi, ma'lumotlar to'plandi, umumlashtirildi, guruhlandi va taqqoslandi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida xulosa va takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi tahdidlarni oldini olish uchun oliy ta'lim muassasalari uchun imkoniyatlarni alohida o'rganib chiqdik. Bularga quyidagilar kiradi:

Texnologik innovatsiyalar. Texnologiyalarni joriy etish oliy ta'lim muassasalari uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Onlayn ta'lim platformalari orqali nafaqat mahalliy, balki xalqaro talabalarni ham jalb qilish va ta'lim sifatini oshirish mumkin. Shuningdek, raqamli kutubxonalar, masofaviy ta'lim va virtual laboratoriyalar orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish imkoniyati mavjud.

Xalqaro hamkorlik va almashinuv dasturlari. Xalqaro hamkorlik va almashinuv dasturlari orqali oliy ta'lim muassasalari o'z imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda qo'shma dasturlar tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar sohasida hamkorlikni kuchaytirish muassasalar raqobatbardoshligini oshiradi.

Innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqotlarga e'tibor. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish orqali oliy ta'lim muassasalari xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashi mumkin. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash va strategik tadqiqotlarga e'tibor berish orqali oliy ta'lim muassasalari o'z obro'sini oshirishi va raqobatbardoshliklarini kuchaytirishi mumkin.

Maxsus dasturlarni ishlab chiqish. Mahalliy va xalqaro talabalar asosida maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish oliy ta'lim muassasalariga o'z o'rnini mustahkamlash imkonini beradi. Masalan, yashil energetika, sun'iy intellekt, va boshqa sohalarga e'tibor qaratish orqali yangi talabalarni jalb qilish va ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish mumkin.

1-jadval

OTMlarning raqobatbardoshligini baholashning swot tahlili¹

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
Qat'iy akademik an'analar	Moliyaviy cheklovlar
Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategik joylashuv	Texnologiyalarning sust joriy etilishi
Malakali kadrlar	Global ko'rinishning yetarli emasligi
O'zgaruvchan infratuzilma	Iste'dodli kadrlarning chet elga ko'chishi
Imkoniyatlar	Tahdidlar
Xalqaro hamkorlik va dasturlar	Global raqobat
Texnologik rivojlanish imkoniyatlari	Moliyaviy barqarorlikning yetishmasligi
Innovatsion tadqiqotlarga sarmoya	Miya oqishi va iste'dodli kadrlar yetishmasligi

Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlash uchun moliyaviy, texnologik, va innovatsion yo'nalishlarga katta e'tibor qaratishlari lozim. Mahalliy oliy ta'lim muassasalari global muhitda muvaffaqiyatga erishishlari uchun xalqaro hamkorlik, ilmiy tadqiqotlar va maxsus dasturlar orqali o'z imkoniyatlarini kengaytirishlari zarur. Oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

- Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash. Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy resurslarni kengaytirish yo'llarini izlashlari kerak. Bunda davlat va xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro grantlar va investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy barqarorlik universitetlarga yangi ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, malakali kadrlarni jalb qilish va zamonaviy infratuzilmani yaratishga yordam beradi.

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi oliy ta'lim muassasalarining global raqobatbardoshligini oshiradi. Onlayn ta'lim platformalari, masofaviy o'qitish tizimlari va virtual laboratoriyalar orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish zarur.

- Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratish. Oliy ta'lim muassasalari o'z ilmiy-tadqiqot faoliyatini mustahkamlashlari kerak. Innovatsiyalar va fundamental tadqiqotlar orqali xalqaro miqyosda o'z mavqeini mustahkamlashlari mumkin. Bu yo'nalishda davlat ko'magini kuchaytirish va maxsus ilmiy markazlarni rivojlantirish zarur.

- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Xorijiy universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish OTMlarning xalqaro miqyosda tan olinishi va raqobatbardoshligini oshiradi. Almashinuv dasturlari va qo'shma ilmiy loyihalar orqali hamkorlikni kengaytirish muhimdir.

¹ Muallif ishlanmasi

• Talabalarning iste'dodlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish. Talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni innovatsiyaga yo'naltirish va qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur. Bu talabalarning milliy va xalqaro bozorda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlash uchun turli tahdidlarni yengish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishlari kerak. Moliyaviy resurslar, ilmiy-tadqiqot faoliyati va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarining xalqaro miqyosda kuchli raqobatbardosh bo'lishiga asosiy omillar hisoblanadi.

Xalqaro hamkorlik, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish orqali oliy ta'lim muassasalari o'z mavqeini mustahkamlashlari mumkin. Shu bilan birga, talabalarga sifatli ta'lim va ko'nikmalarni taqdim etish, iste'dodlarni rivojlantirish orqali mamlakatdagi oliy ta'lim tizimini global standartlarga mos ravishda rivojlantirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Harvard Business Review (2019). *"The Competitive Advantage of Higher Education"* Journal of Business Research.
2. Marginson, S. (2018). *"The Worldwide Context of Higher Education"* Assessing the Contributions of Higher Education (pp. 61-87).
3. Christensen, C., Horn, M., & Johnson, C. (2011). *"Disrupting Class: How Disruptive Innovation Will Change the Way the World Learns."*
4. Gartner Research (2020). *"Top Strategic Technology Trends for Higher Education."*
5. Salmi, J., & Tapper, T. (2018). *"The Marketization of Higher Education and the Student as Consumer."*
6. Altbach, P.G., & Knight, J. (2007). *"The Internationalization of Higher Education: Motivations and Realities."*
7. Sharopova, N. (2024). *Enhancing Digital Market Research Through Distributed Data and Knowledge-Based Systems: Analyzing Emerging Trends and Strategies*. In: Koucheryavy, Y., Aziz, A. (eds) Internet of Things, Smart Spaces, and Next Generation Networks and Systems. NEW2AN ruSMART 2023. Lecture Notes in Computer Science, vol. 14543. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-60997-8_23
8. Campbell, A. C., Nguyen, T., & Stewart, M. (2023). *Promoting International Student Mobility for Sustainability? Navigating Conflicting Realities and Emotions of International Educators*. Journal of Studies in International Education, 27(4), 621–637. <https://doi.org/10.1177/10283153221121386>
9. Zapp, M., & Ramirez, F. O. (2019). *Beyond Internationalisation and Isomorphism—The Construction of a Global Higher Education Regime*. Comparative Education, 55(4), 473–493. <https://doi.org/10.1080/03050068.2019.1638103>

10. Curaj, A., Păunică, M., Popa, A., Holeab, C., & Jora, O. D. (2020). *Sustainability Through Directed Change in the Visionary University: From Predicting to Producing the Future*. *Amfiteatru Economic*, 22(55), 905–919. <https://doi.org/10.24818/EA/2020/55/905>